

## MINTAQADA SANOATNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHDA DASTURIY TA'MINOTNI IMMITATION MODELINI AHAMIYATI

**Rustamov Alisher Bahodirovich**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali dotsenti*

**Annotatsiya:** *Raqamli transformatsiya zamonaviy mintaqav sanoati oldida turgan asosiy muammolardan biridir. Yangi sanoat tuzilmalarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurati bir qator sanoat sektorlari uchun juda muhimdir. Maqolada raqamli transformatsiyalash jarayonida mintaqav sanoat tuzilmasini ma'lumotlar bazasini yaratish ahamiyati keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Sanoat, biznes, globallashtirish, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, raqamli texnologiyalar, logistika, transformatsiyasi, sun'iy aql.*


Hozirgi kunda barcha sohalarda axborot texnologiyalarining o'rnini beqiyos hisoblanadi. Mintaqalarda raqamli sanoat sektorlarini rivojlantirish va foydalanuvchanligini oshirish maqsadida keng ko'lamlilik ishlar olib borilmoqda. Sanoat tuzilmasini raqamlashtirish jarayonlarini dasturlashtirish va uni dasturiy ta'minotini ishlab chiqib, dasturiy ta'minot orqali natijalarga erishish biz olib borayotgan tadqiqotni asosiy maqsadini va vazifasini belgilab beradi. Savol tug'iladi dasturiy ta'minot bizga qanday qulayliklar va imkoniyatlarni yaratib beradi. Demak, mintaqalarda sanoat tuzilmalarini raqamlashtirish ishlab chiqaruvchilar va ishlab chiqarilgan mahsulotlardan foydalanuvchilar uchun ham juda katta imkoniyatlarni yaratadi.

Sanoat sohasi shunday sohaki barcha mintaqalarda e'tibor katta, shuning uchun ushbu sohani axborot texnologiyalari bilan bog'lamaslikning iloji yuqdir. Barcha turdagi ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari haqida ma'lumot olish imkoniyati hozirgi kunda muhim hisoblanadi chunki, bu imkoniyatlar ishlab chiqaruvchilar hamda foydalanuvchilar uchun ortiqcha vaqt va xarajatlarning sarflanishini oldini oladi. Shuningdek turli sanoat korxonalarini tamonidan ishlab chiqarilgan to'liq bo'lmagan mahsulotlarni ma'lum bir qismlarini tizimga joylagan xolda boshqa sanoat korxonalarini bilan mahsulotlar almashishlari va sotish hamda sotib olish imkoniyatlari mavjuddir.

Dasturiy vositani bosh sahifasida tizimdan foydalanuvchilar uchun inaktiv xizmatlarni taqdim qiluvchi ma'lum bir xizmatlarni ham ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan quyida keltiriladigan dasturiy vosita ham mintaqav sanoat tuzilmasini ma'lum bir qismida axborot texnologiyalari orqali viloyatning sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashishiga va barcha hududlar bo'ylab ishlab chiqaruvchilarni mahsulotlari tanishish hamda boshqa ma'lumotlarni olishga yordam beradi. Bu esa mintaqada sanoat tuzilmalarini raqamlashtirish jarayonini

takomillashtirish va korxonalarning bir qancha vazifalarini barqaror rivojlanishiga o'z xissasini qo'shadi.

Bu esa ushbu tizimni keng doirada olib borishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek platformani yaratish jarayonida immitatsion modeli ham yaratildi. Platformani immitatsion modeli 1-rasmda keltirib o'tilgan.



**1-rasm. Dasturiy ta'minotni immitatsion modeli.**

Dasturiy ta'minotni immitatsion modelini yaratishda biz quyidagi blok sxemalar bo'yicha ishlarni olib bordik. Bu yerda mintaqa sanoat tuzilmasini axborot texnologiyalari yordamida takomillashtirish platformasi keltirilgan. Ushbu dasturiy ta'minotni quyidagi bloklardan tashkil qilingan.

**Birinchi blok** – uchta bo'limdan tashkil qilingan bo'lib, bular **ideolog**-mintaqa sanoat tuzilmasini AKT dan foydalanib takomillashtirishda zaruriy loyihalarni ishlab chiqadi (1.1), **dasturchilar**-ideolog tamonidan ishlab chiqilgan loyihaga binoan sanoat tuzilmasini dasturiy vositasini yaratadi (1.2) va **platforma**-dasturchilar tamonidan yaratilgan dasturiy vosita bo'lib, bunda sanoat tuzilmasini takomillashtirish bo'yicha yelektron tizim ishlab chiqilgan (1.3).

**Ikkinchi blok** – mintaqaning yengil sanoati olingan. Bunda qog'oz sanoati (2.1), qurilish materiallar sanoati (2.2), shisha va chinni sanoat (2.3) yog'ochni qayta ishlash sanoati (2.4) v.b sanoatlar olingan.

**Uchinchi blok** – mintaqaning og'ir sanoati keltirilgan. Mashinasozlik sanoati (3.1), Qurilish yo'l kommunal muhandislik sanoati (3.2), metal tuzilmalari va maxsulotlari sanoati (3.3), neft-kimyo sanoati (3.4)v.b sanoatlar keltirilgan.

**To'rtinchi blok** - mintaqa sanoat sektorlarini joylashuv manzillarini

aniqlash (4.1), tashkilot haqida kerakli ma'lumotlarni olish (4.2), bog'lanish uchun rikvizitlarni aniqlash (4.3).

**Beshinchi blok** – sanoat korxonalarining AKT yo'nalishida xavfsizligini baholash xizmati ishlab chiqilgan. Ushbu xavfsizlik jarayoni baholashda quyidagi AKT tizimiga ta'sir etuvchi omillar olingan. Tabiiy va sun'iy xavflar (5.1), Tasodifiy foydalanuvchi (5.2), Tarmoqdagi xavflar (5.3), Dastur o'rnatish orqali xavf (5.4), Foydalanuvchi befarqligi (5.5), Ma'lumotlar bazasidagi xavflar (5.6), Signallar orqali xavflar (5.7), Xodimlar orqali vujudga keladigan xavflar (5.8),

Ushbu dasturiy vositani asosiy vazifalaridan biri mintaqalardagi sanoat sektorlarida ishlab chiqariladigan barcha turdagi maxsulotlari haqida markazlashgan ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatlari mavjuddir. Shunday ekan hozirgi vaqtda mintaqalarda ishlab chiqarishni texnologik imkoniyatini takomillashtirish, keng ko'lamli imkoniyatlarni beradigan raqamli texnologiyalar va innovatsion texnologiyalar orqali ishlab chivarilgan maxsulotlarni ekportini oshirish hamda bu bo'yicha keng doirada ilmiy izlanishlar olib borishni talab qiladi. Shuningdek yangi sanoat tuzilmalarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurati bir qator sanoat sektorlari uchun juda muhimdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrda PF-6079-son
2. Mahmudov M.F. Features of effective useage of industrial potential in Kashkadarya region. Научные исследования. №2 (28) (2019). P. 9-13;
3. Холматов Н. О'zbekistonда sanoatlashuv jaraёnining omillari, shart-sharoitlari va istiqbolлари: монография. – Тошкент: "Илм-зиё-заковат", 2020. – 242 б.
4. Рустамов, А. (2022). МИНТАҚА САНОАТ ТУЗИЛМАСИНИ ИНСТИТУЦИОНАЛ ИҚТИСОДИЁТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИ. *Solution of social problems in management and economy*, 1(7), 113-117.
5. Отабоев Ш. Х. Нудудни ривожлантириш йо'налишларини аниқлаш ва уларни кластерлар ташкил этиш орқали амалга ошириш (Фарғ'она вилояти мисолида) // Иқтисод ва молия (О'zbekiston). – 2020. – №. 4 (136).;
6. Rustamov, A. B. (2023). RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONINING SANOATDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN O 'RNI*, 1(1).